

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ILG‘OR XORIJIY TARJIBA ASOSIDA TA‘LIM SIFATINI OSHIRISH

**Qulmamatov Sindorqul Ibragimovich**

Guliston davlat pedagogika instituti, dotsenti, p.f.n.

**Alamova Nigoraxon Adham qizi**

Guliston davlat pedagogika institute Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10927784>

**Annotatsiya.** Boshlang‘ich sinflarda xorijiy tajribalar orqali ta‘lim tizimini yaxshilash, an‘anaviy o‘qitish tizimidan bosqichma-bosqich noan‘anaviy o‘qitish tizimiga o‘tish masalalari maqolada yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Xorijiy tajriba, o‘qitish dasturi, dasturlashtirilgan o‘qitish, zamonaviy texnologiyalar, Yaponiya, Finlandiya, an‘anaviy dars, noan‘anaviy dars.

## IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN PRIMARY CLASSES BASED ON ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE

**Abstract.** The article covers the issues of improving the education system through foreign experiences in elementary grades, gradually transitioning from the traditional education system to the non-traditional education system.

**Keywords:** Foreign experience, teaching program, programmed teaching, modern technologies, Japan, Finland, traditional lesson, non-traditional lesson.

## ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ НА ОСНОВЕ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы совершенствования системы образования на основе зарубежного опыта в начальных классах, постепенного перехода от традиционной системы образования к нетрадиционной системе образования.

**Ключевые слова:** Зарубежный опыт, программа обучения, программированное обучение, современные технологии, Япония, Финляндия, традиционный урок, нетрадиционный урок.

**Kirish.** O‘qituvchi o‘quvchilarga dars berar ekan uni o‘z farzandi kabi suyub, mexr beradi. O‘quvchini loyga qiyoslasak o‘qituvchi kuloldir. Kulol loyga ishlov bergani kabi o‘qituvchi ham o‘quvchilarning komil inson bo‘lib yetishishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining yetuk shaxs bo‘lib yetishishida o‘rni beqiyos, ularning ishi qiyin va mashaqqatli hisoblanadi.

Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan har tamonlama bilimli, zamonaviy bilim va malakalarga ega bo'lishi talab qilinadi. Buning uchun har bir o'qituvchi zamonaviy texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganib borishi va ulardan dars mashg'ulotlarida foydalanishlari muhim hisoblanadi. Buning natijasida o'quvchining bilim salohiyatini yanada rivojlantrishga erishiladi.

O'quvchilarning idrok qilish, tafakkur jarayonini yaxshilash maqsadida dasturlashtirilgan o'qitish qo'llaniladi. Bunday o'qitish tizimida barcha ish faoliyati oxirgi natijaga qaratilgan bo'lib, kichik qadamlar bilan o'zlashtirish asos bo'lib xizmat qiladi. Bu tizim o'quvchilarni individual ishlashga chorlaydi. Tizimning mazmuni butun o'quv materialini bir qancha qismlarga bo'lgan holda bilimlar oddiydan murakkabga qarab belgilanadi. An'anaviy darsda mavzu o'rganilib natija keyin tekshirilib mustahkamlansa, dasturliy ta'lim tizimida esa bu mavzuni o'zlashtirishning barcha jarayonida tekshirilib nazorat qilinadi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'plab muassasalar faoliyat ko'rsatib turibdi. Germaniyada ularning soni 2 mingdan ortiq. Fransiya, AQSH, Yaponiya ta'lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tadqiqot markazlari shug'ullanmoqdalar. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Ularning tajribalari bilan tanishaylik.


Masalan, Yaponiya boshlang'ich ta'lim o'qitish tizimiga e'tibor beraylik. Ularda har yili sinflar yangicha tizimda shakllantriladi. O'quvchilar har o'quv yilida yangi jamoaga kirishadi. Jamoaning yarmini yangi o'quvchilar band qilishadi. Bu tizim muhitning ta'sir etishi natijasida bilim olishning chuqurlashishiga sabab bo'ladi.

Endi esa Germaniya ta'lim tizimining boshlang'ich ta'lim bosqichini ko'rib chiqaylik. Germaniya Konstitutsiyasiga muvofiq, maktab ta'limi davlat nazoratidadir. Mamlakatda 16 ta federal hududlar mavjud bo'lsa, ularning har biri o'zining ta'lim to'g'risidagi qonuniga ega. Shu sababli federal hududlarning maktab ta'lim tizimida ayrim farqlar bor. Masalan, aksariyat hududlarda boshlang'ich ta'lim 4 yil (birinchi sinfdan to'rtinchiga qadar), poytaxt Berlinda esa – 6 yil. Ammo bu kabi farqlarga qaramasdan, barcha hududlar uchun umumiy tartib-qoidalar amal qiladi.

Bolalar 5-6 yoshdan boshlang'ich maktabga qatnaydi. Boshlang'ich maktabda o'qish davri to'rt yildan olti yilgacha. Maktablarda birinchi, ikkinchi sinf davomida o'quvchilarga baho qo'yilmaydi. O'qituvchilar baho o'rniga bolaning individual, psixologik rivojlanish holati xususida hisobot tayyorlaydi. O'quvchilarga 3-sinfdan baho qo'yila boshlaydi. O'quvchilar

fanlarni eng kamida "4"ga o'zlashtirishi kerak. Boshlang'ich bosqichda bolalarga matematika, nemis tili, tabiatshunoslik, musiqa, estetika fanlari o'tiladi. Germaniya boshlang'ich ta'limining asosiy maqsadi - o'quvchilar o'rtasida muhim tushuncha, ko'nikma, qobiliyat va asosiy kompetensiyalarni rivojlantirishdir.

Fransiyada esa boshlang'ich sinflarni o'qitish 5 yilni tashkil etadi. Bu 5 yil mobaynida bir necha bosqichlarga bo'lingan holatda o'qitish tashkil etiladi(1-rasm).



### **1-rasm. Fransiyada boshlang'ich ta'limi bosqichlari.**

Bugungi kunda biz Finlandiya ta'lim tizimini ham o'rganilmoqda. Finlandiya 2014-yilda yangi milliy tayanch o'quv dasturi ishlab chiqildi va 2016-yil avgust oyidan boshlab amaliyotga joriy qilina boshladi. O'quv dasturini isloh qilishdan maqsad o'qituvchi-pedagoglar bolalar va yoshlarning hayotida zarur bo'lgan bilimlarni o'rgatishlarida yordam berishdan iborat. Shu jumladan, AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi va Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi hamkorligida yurtimizda "Ona tili va o'qitish savodxonligi" hamda "Matematika" fanlaridan boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun yangi darslik va qo'llanmalar ishlab chiqildi.

2022-2023-o'quv yilida Namangan va Sirdaryo viloyatlarida 918 ta maktabda "Ona tili va o'qish savodxonligi" hamda "Matematika" fanlaridan boshlang'ich sinflar uchun yangi darsliklar sinovdan o'tkazilmoqda.

O'zbekistonda boshlang'ich sinf darsliklari innovatsion texnologiyalar, yangi tajribalar bilan boyitilib o'quvchilarga tarqatila boshladi. Ushbu darsliklar o'quvchilarda "4K" modelini (kritik fikrlash, kreativlik, kolloboratsiya, kommunikatsiya) qo'llash bilan o'quvchilarda guruh bilan ishlash, fikrlash qobiliyatining o'sishi, dunyoqarashining kengayishiga erishiladi.

Jahon ta'lim tizimini kuzatar ekanmiz, har bir rivojlangan davlatning boshlang'ich ta'lim tizimida o'ziga hos ustuvor tomonlari mavjud. Bu tizimlar keyingi ta'lim uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Jahon ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganib, o'z mentalitetimizga moslashtirib amalda ta'lim tizimimizda qo'llash yuqori natijalar beradi.

**Xulosa:** O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim tizimini balki barcha ta'lim sohasini rivojlantirishga e'tibor kuchaymoqda. Bunga oddiy misol qilib masofaviy ta'lim tizimiga o'tishni boshlaganimizni ayta olamiz.

Ta'lim sohasida yuz berayotgan barcha o'zgarishlar bugungi kun yoshlarining yetuk, barkamol, komil inson bo'lib yurtimiz ravnaqiga o'z hissasini qo'shishlari uchun qaratilgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Ona tili ta'limi mazmunidagi takomillashuv. Ma'rifat.2022-yil 27-iyul. N29(9406).
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta'lim to'g'risidagi. 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son.
3. Isoqov, I., & Qulmamatov, S. I. (2014). Informatika o'qitishning zamonaviy shakl va metodlari. *O'quv qo'llanma. Guliston, GulDU.*
4. [https:// kokanduni.uz](https://kokanduni.uz)
5. [https:// arxiv.uz](https://arxiv.uz)
6. [https:// daryo.uz](https://daryo.uz)